

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARIXIY-FALSAFIY MEROSINING KOMIL INSON TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Aytmuratova Ziyba

Qoraqalpoq davlat universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15770864>

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosida komil inson tarbiyasiga oid g'oyalar tahlil etiladi. Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy kabi allomalarning asarlarida ifodalangan axloqiy, ma'naviy va ilmiy yetuklik mezonlari asosida komil inson tushunchasining mohiyati ochib beriladi. Maqolada shuningdek, bu merosning zamonaviy tarbiya tizimidagi ahamiyati, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Tarixiy-falsafiy qarashlar orqali yoshlarda sog'lom dunyoqarash, halollik, ezigulik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Sharq falsafasi, komil inson, ma'naviyat, tarbiya, tarixiy meros, yoshlarda qadriyatlar.

Kirish. Insoniyat tarixida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Xususan, Sharq mutafakkirlarining asrlar davomida yaratgan tarixiy-falsafiy merosi xalq ruhiyatining, dunyoqarashining shakllanishida, komil inson tarbiyasida beqiyos rol o'ynagan. Bugungi kunda jamiyatda ma'naviy qashshoqlik, axloqiy inqirozlar, maqsadsizlik kabi salbiy holatlar kuzatilayotgan bir paytda, bu boy merosga murojaat qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, komil inson tarbiyasi masalasi – bu faqat pedagogik muammo emas, balki ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayot bilan uzviy bog'liq muhim jihatdir. Shunday ekan, maqolamizda Sharq allomalari – Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Yassaviy, Rumiy kabi mutafakkirlarning merosini tahlil qilgan holda, ularning komil inson haqidagi qarashlarini zamonaviy tarbiya jarayoniga tatbiq etish zarurati yoritib beriladi.

Sharq falsafasida komil inson g'oyasi qadimdan mavjud bo'lib, u diniy, axloqiy va falsafiy tafakkur asosida rivojlangan. Ayniqsa, Islom madaniyati bilan uyg'unlashgan holda bu tushuncha yuksak darajada takomillashdi. Forobiy komil insonni "fazilatli shahar" asoschisi sifatida tasvirlab, bunday inson bilimli, odil, burchini yaxshi biladigan, jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk shaxs bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, Abu Rayhon Beruniy ilm-fan va axloqning uyg'unligida inson kamolotini ko'rgan. Uning fikricha, ilm faqat moddiy maqsadlar uchun emas, balki insonni to'g'ri yo'lga boshlovchi nur bo'lishi lozim. Demak, Sharq mutafakkirlarining g'oyalarida komil inson – bu bilimli, axloqiy barkamol, sabrli va jamiyatga foydali inson timsolidir. Bu tushuncha nafaqat diniy, balki dunyoviy asoslar bilan boyitilgan bo'lib, har bir davrda o'z ahamiyatini saqlab qolgan [5].

Sharq mutafakkirlarining asarlarida komil inson obrazi ko'plab shakllarda ifoda etilgan. Misol uchun, Alisher Navoiy o'z asarlarida insonni "kamil" darajaga yetkazish uchun ilm, odob, sabr, halollik, sadoqat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni mukammal tarzda o'zlashtirish lozimligini yozgan. Uning "Mahbub ul-qulub" asarida:

"Ilmsiz kishi yo'ldan ozar,

Ilmli kishi xalqni tuzar",

— degan hikmatli so'zlari komil inson tarbiyasida ilmning o'rnini ko'rsatadi [3, 275-277].

Ahmad Yassaviy esa o'zining "Hikmatlar"ida inson qalbini poklash, nafs ustidan g'alaba qozonish orqali Allohga yaqinlashish zarurligini uqtiradi. U, avvalo, ichki poklik, halollik, sabr-toqat, shukr kabi ma'naviy fazilatlarini tarbiyalashga alohida urg'u bergan. Jaloliddin Rumiy esa "Masnaviy" asarida insonni ruhiy poklanishga, qalb kamoliga yetishga da'vat etadi. U uchun inson – bu jism emas, balki ruh, qalb va nur. U deydi:

“Sen o'zingni jism deb bilma,
Sen cheksiz ruh, ilohiy sirsan.”

Shu tarzda, mutafakkirlar o'z asarlarida komil insonni faqat tashqi ko'rinishi bilan emas, balki qalbi, aqli va amali orqali baholaganlar.

Sharq falsafasining asosiy ustunligi shundaki, u nazariy fikrlar bilan cheklanmaydi, balki bevosita tarbiya, axloq va ma'naviyatga qaratilgan amaliy g'oyalarni ilgari suradi. Bugungi kunda yosh avlod turli chet madaniyatlari, virtual dunyo, axborot texnologiyalari ta'sirida shakllanayotgan bir paytda, tarixiy-falsafiy meros asosida ularni to'g'ri yo'nalishda tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Masalan, maktab darslarida Forobiy yoki Navoiy asarlaridan namunalar keltirish, ularni tahlil qilish, muhokama qilish o'quvchilarning nafaqat bilimni oshiradi, balki axloqiy dunyoqarashini ham kengaytiradi. Shuningdek, yoshlarga Yassaviy hikmatlarini o'qitish orqali sabr-toqat, o'z ustida ishlash, mehnatsevarlik, sabr va shukr fazilatlarini singdirish mumkin. Ularning g'oyalarini teatr ko'rinishida sahnalashtirish, badiiy kechalar tashkil qilish, insholar yozdirish orqali zamonaviy ta'lim-tarbiya metodikasini boyitish lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi bugungi tarbiya tizimida beqiyos o'rin egallaydi. Ularning asarlarida komil inson obrazi mukammal shakllangan bo'lib, bu g'oyalar o'zining bugungi kundagi ahamiyatini yo'qotmagan, balki dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tarbiya jarayonida bu g'oyalardan foydalanish orqali biz nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, irodali, halol va ezgulikni qadrlaydigan insonlarni voyaga yetkazamiz. Sharq donishmandlari yaratgan meros biz uchun bebaho xazinadir. Uni o'rganish, targ'ib qilish, amaliyotga joriy etish orqali biz jamiyatimizni yanada barqaror, ma'naviy boy, axloqiy sog'lom holga keltiramiz.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isroilov, A. F. (2022). SHARQ RENESSANSI DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 565-574.
2. Rahmonovna, F. S. (2025). BUYUK AJDODLARIMIZNING ILMIY MEROSINI CHUQUR O'RGANISH VA TARG'IB ETISH. *PEDAGOGS*, 75(1), 323-330.
3. Nabi, J. (2024). SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDAN TA'LIM-TARBIYADA FOYDALANISHNING ZARURIYATI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 275-277.
4. Shavkat, D. (2024). MARKAZIY OSIYO ALOMALARINING MILLIY IDENTIKLIK TO'G'RISIDAGI QARASHLARINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 200-207.
5. Тулиев, К., & Еркинова, З. (2025). SHARQ PEDAGOGIKASIDA TARBIYA MASALASINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI. *Interpretation and researches*, (6 (52)).